



UDK: 303.024.23

ORCID: 0009-0005-0573-1923

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA RAHBAR ETIKASI VA ESTETIKASINING BOSHQARUVDAGI O'RNI

Berdiyorova Nilufar Berdiyori qizi

Xalqaro Nordik universiteti

"Psixologiya va maktabgacha ta'lim kafedrası" o'qituvchisi

E-mail: berdiyorovaniluberdiyrovna@gmail.com

+998903938899

Annotatsiya: Mazkur maqola maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarining boshqaruvdagi etika va estetika tamoyillarining ahamiyatini tahlil qiladi. Etik tamoyillar insonlar o'rtasidagi axloqiy munosabatlarni yaxshilashga xizmat qilsa, estetik tamoyillar ta'lim muassasasining tashqi ko'rinishi va muhitini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining qonunchilik asoslari, statistik ma'lumotlar va global qiyosiy tahlil ham keltirilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, etika, estetika, boshqaruv, ta'lim muassasalari, qonunchilik, global tajriba

РОЛЬ ЭТИКИ И ЭСТЕТИКИ РУКОВОДИТЕЛЯ В УПРАВЛЕНИИ ДОШКОЛЬНЫМИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ УЧРЕЖДЕНИЯМИ

Аннотация: Данная статья анализирует важность этических и эстетических принципов в управлении дошкольными образовательными учреждениями. Этические принципы способствуют улучшению моральных отношений между людьми, а эстетические принципы направлены на развитие внешнего вида и среды образовательных учреждений. В статье также представлены законодательные основы, статистические данные и глобальный сравнительный анализ, относящиеся к Узбекистану.

Ключевые слова: Дошкольное образование, этика, эстетика, управление, образовательные учреждения, законодательство, глобальный опыт.

THE ROLE OF A LEADER'S ETHICS AND AESTHETICS IN THE MANAGEMENT OF PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Annotation: This article examines the importance of ethical and aesthetic principles in the management of preschool education institutions. Ethical principles enhance moral relations among individuals, while aesthetic principles aim to improve the external appearance and environment of educational institutions. The article also includes the legislative framework, statistical data, and a global comparative analysis relevant to Uzbekistan.

Keywords: Preschool education, ethics, aesthetics, management, educational institutions, legislation, global experience

Kirish.

Jamiyat taraqqiyoti va kelajagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri uning ta‘lim tizimi bilan bog‘liqdir. Ayniqsa, maktabgacha ta‘lim tizimi bolaning ilk rivojlanish bosqichlarida unga mustahkam poydevor yaratadi. Bu bosqichda tashkil etilgan ta‘lim jarayoni nafaqat bolalarning aqliy salohiyatini rivojlantiradi, balki ularning axloqiy va estetik qarashlarini shakllantiradi. Shu sababli, maktabgacha ta‘lim muassasalarini boshqarishda rahbarlarning etika va estetika tamoyillariga rioya qilishi tizim samaradorligini ta‘minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida ta‘lim sohasida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar doirasida maktabgacha ta‘lim tizimi ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Davlatimiz rahbarining qaror va farmonlari bilan ushbu soha rivojlanib, tashkilotlarning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanmoqda. Shu bilan birga, bolalar va ularning ota-onalari uchun qulay sharoitlar yaratish, ta‘lim sifatini oshirish masalalari e‘tiborda turibdi. Bu jarayonda rahbarlarning boshqaruvda etika va estetikaga rioya qilishi muassasalar obro‘cini oshirish va ular faoliyatining samaradorligini ta‘minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

ASOSIY QISM: Zamonaviy boshqaruv falsafasi etika va estetikaning uzviy uyg‘unligini talab qiladi. Etika tamoyillari insonlar o‘rtasidagi axloqiy va madaniy munosabatlarni yaxshilasa, estetika tamoyillari tashqi muhitni yanada jozibador va qulay qilishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada maktabgacha ta‘lim tashkilotlari rahbarlarining boshqaruv faoliyatida ushbu tamoyillarga qanday amal qilishlari kerakligi va ularning ahamiyati keng tahlil etiladi. Maktabgacha ta‘lim tizimi har bir jamiyatning kelajak avlodni tarbiyalashdagi eng muhim bo‘g‘inlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta‘lim tizimi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida rivojlantirilmoqda. Ushbu jarayonda tashkilot rahbarlarining boshqaruvdagi etika va estetika tamoyillariga rioya qilishi tizimning samaradorligi hamda sifatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. **Etika** — bu insonlar o‘rtasidagi axloqiy munosabatlar, ijtimoiy javobgarlik va odob-axloq normalarini o‘z ichiga olgan sohadir. Maktabgacha ta‘lim tashkiloti rahbari o‘z faoliyatida o‘qituvchilar, ota-onalar va bolalar bilan muloqotda yuqori darajadagi etika me‘yorlariga rioya qilishi zarur. **Estetika** esa tashqi ko‘rinish, muhitni tartibga solish, maktabgacha ta‘lim tashkilotining tashqi va ichki qiyofasini zamonaviy

va jozibador holda ushlab turishni o‘z ichiga oladi. Bu bolalarda ijodiy fikrlash, go‘zallikka qiziqish va qadrlash hissini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Maktabgacha ta’lim rahbarlarida etikava imdjning boshqaruvdagi roli muhim va bu xodimlarning ish faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bu albatta o‘zaro munosabatlarning sifatini oshirishga xizmat qiladi. Rahbarlar o‘qituvchilar va xodimlar bilan hurmat, adolat va ishonch asosida muloqot qilishlari zarur. Masalan, rahbar tomonidan xodimlarning fikr-mulohazalarini e’tiborga olish va ular bilan ochiq muloqotda bo‘lish jamoaning ishchan muhitini mustahkamlaydi. Shu bilan bir qatorda konfliktlarni boshqarishni ham ta’minlab beradi. Etika tamoyillari rahbarga kelib chiqishi mumkin bo‘lgan nizolarni tezkor va samarali hal etishda yordam beradi. Misol uchun, xodimlar o‘rtasida kelib chiqqan nizolarda adolatli yondashuv muhim ahamiyatga ega. Rahbardan yana loyihalarni boshqarishda ochiqlik va adolat prinsplari ham qattiy ta’lab etiladi. Ta’lim jarayonini tashkil etishda rahbarning halolligi va ochiqligi ishtirokchilarning motivatsiyasini oshiradi. Masalan, ota-onalar bilan ochiq hisobot o‘tkazish orqali ularning ishonchini qozonish mumkin. Ma’suliyatli boshqaruv ham rahbarning eng sezilarli boshqaruvdagi yutuqlaridan biridir. Rahbarning har bir qarori tashkilotning obro‘sigacha ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, rahbar har doim axloqiy me’yorlarni inobatga olishi lozim. Rahbar estetikasining boshqaruvdagi o‘rni ham muhim va u ham o‘ziga xos asosiy bo‘g‘inlardan tarkib topgan. Rahbar estetik didga ega bo‘lganida maktabgacha ta’lim tashkiloti muhitining jozibadorligini ta’minlaydi. Bolalar maktabgacha ta’lim tashkilotida ko‘proq vaqt o‘tkazadigan bo‘lgani sababli, bino va joylarning estetikasiga alohida e’tibor qaratilishi lozim. Misol uchun, yorqin va bolalarga mos dekoratsiyalar ularning psixologik va ijodiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Tashkilotning imdjini ham rahbar shakllantirib beradi. Jozibali muhit ota-onalar va jamiyatda tashkilotning nufuzini oshiradi. Bu ota-onalarning tashkilotni tanlashiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan bir qatorda rahbar bevosita didaktik materiallarning ham go‘zalligini ta’minlaydi. Xodimlardan bajargan ishlarida ham estetik didni ta’lab qiladi. O‘quv va o‘yin materiallari estetik jihatdan jozibador bo‘lsa, bolalarning qiziqishi ortadi va o‘quv jarayoni samaradorligi oshadi. Rahbar estetikasi xodimlarning ham mehnat qilishlari uchun qulay va chiroyli muhitini ta’minlaydi. Estetik jihatdan tartibga solingan mehnat muhiti xodimlarning ishga bo‘lgan munosabatini yaxshilaydi va ularning samaradorligini oshiradi. Maktabgacha ta’limda yoki umumiy ta’lim tizimida rahbarning etika va estetika tamoyillari bir-biri bilan uzviy bog‘liq. Etika tamoyillar asosida tashkil etilgan boshqaruv estetikaning rivojlanishi uchun poydevor yaratadi. Shu bilan birga, estetikaga e’tibor berilgan muhitda etika munosabatlarni yo‘lga qo‘yish osonlashadi. Maktabgacha ta’lim tashkilot rahbari bu ikki tamoyilni uyg‘unlashtirgan holda boshqaruvni amalga oshirishi kerak. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni va boshqa normativ hujjatlar maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbarlarining etika va estetika tamoyillariga rioya etishi uchun asosiy yo‘riqnoma hisoblanadi. Masalan, bu hujjatlarda ta’lim tashkilotlarining ichki tartibi, estetik talablari va axloqiy me’yorlari aniq belgilangan. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda maktabgacha ta’lim tashkilotlari soni ortib bormoqda. Masalan, 2023-yil ma’lumotlariga ko‘ra, bu tizimda 15

mingdan ortiq tashkilot faoliyat yuritmoqda va ular sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha 20% o‘shish kuzatilgan. Dunyo miqyosida esa rivojlangan mamlakatlarda estetik muhit va etik boshqaruvning ahamiyati yanada kuchliroq seziladi. Misol uchun, Finlyandiya maktabgacha ta'lim tizimida muhitni bolalar ijodkorligini oshirishga yo‘naltirish global standart sifatida tan olingan.

XULOSA. O‘zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim tizimida etika va estetikaning boshqaruvdagi o‘rni katta ahamiyat kasb etadi. Rahbarlar tomonidan bu tamoyillarga rioya qilinishi nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki bolalarning shaxsiy rivojlanishiga, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning yaxshilanishiga ham hissa qo‘shadi. Shu sababli, rahbarlarning ushbu sohalarida bilim va ko‘nikmalarini muntazam ravishda oshirib borishlari zarur. Bu orqali maktabgacha ta'lim tashkilotlari zamonaviy va yuqori sifatli ta'lim maskanlariga aylanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Gulmira Alimovna Kamilova, & Go‘Zal Rajab Qizi Qurbonova (2021). MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIGA RAHBARLIK VA BOSHQARISHDA ZAMONAVIY YONDASHUV. Scientific progress, 2 (7), 1149-1153
2. M.T. Hamdamova (2024). MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI RAHBARINING BOSHQARUV KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHGA OID JAHON TAJRIBALARI TAHLILI. Inter education & global study, (6), 41-47.
3. Egamberdiyeva, M. (2022). TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNALOGIYALARDAN FOYDALANISH. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 1(18), 214-217.
4. Ma’Mura Abdumo‘Minovna Ismanova (2021). MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA RAHBARLIK QILISH VA TASHKIL ETISH YO‘LLARI. Academic research in educational sciences, 2 (5), 1581-1587. doi: 10.24411/2181-1385-2021-01072